

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra viloyatimizda 4 748 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 128 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,7 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 719 tasi (15,1 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 374 tasi (7,9 %) kiyim ishlab chiqarishga, 456 tasi (9,6 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 343 tasi (7,2 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-dekabr holatiga ko'ra



II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 51 284,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Samarqand viloyati	51 284,1	108,0
Samarqand sh	18 059,2	108,1
Kattaqo'rg'on sh	1 029,7	108,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	1 048,9	110,6
Bulung'ur	1 124,1	107,8
Jomboy	4 535,5	109,8
Ishtixon	1 018,7	108,2
Kattaqo'rg'on	2 154,9	110,8
Qo'shrabot	297,7	116,8
Narpay	1 079,7	109,1
Payariq	649,0	103,3
Pastdarg'om	1 631,3	114,2
Paxtachi	930,7	100,2
Samarqand	2 955,5	109,5
Nurobod	664,7	112,4
Urgut	4 043,1	108,2
Toyloq	2 987,7	104,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (30 103,8 ming so'm), Jomboy tumanida (23 174,0 ming so'm), Toyloq tumanida (13 097,0 ming so'm), Samarqand tumanida (10 535,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (11 874,3 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Qo'shrabot tumanida (114,8 %)

Pastdarg'om tumanida (111,7 %), Kattaqo'rg'on tumanida (108,7 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-noyabr oylarida*



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 49 440,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,4 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 424,9 mlrd so'm (0,8 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 101,7 mlrd so'm (2,1 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 317,5 mlrd so'm (0,6 %) ni tashkil etdi.

*Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-noyabr oylarida*



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 373 853,5 tonna chaqiq tosh (2024-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 14,3 % ga kamaygan), 27 710,5 tonna ip kalava (6,2 % ga ko'paygan), 985,0 tonna sir va tvorog mahsulotlari (10,7 % ga ko'paygan) hamda 31 427,0 ming metr kvadrat gilam va gilam mahsulotlari (8,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Avtobus, <i>dona</i>	776	737	615
Yuk avtomobillari, <i>dona</i>	3 015	2 968	3 898
Portlandsement, <i>ming tonna</i>	19,4	2 267,0	2 678,0
Konyak spirti, <i>ming litr</i>	430,2	215,5	212,7
Paxta tolasi, <i>ming tonna</i>	55,4	34,9	32,6
Gilam va gilam mahsulotlari, <i>ming m. kv.</i>	29 002,7	29 085,2	31 427,0

O'simlik yog'i (tozalangan), <i>ming tonna</i>	52,4	63,0	80,7
Kunjara va qattiq chiqindilar, <i>ming tonna</i>	88,3	101,8	140,3

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 41,1 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,9 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,5 % (13,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,8 % (20,3 %), quyi texnologiyali 58,1 % (59,8 %)ni tashkil etgan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 112,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kv.t.s.	177,7	218,4	245,0
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	177,7	218,4	245,0
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	-	-	-
Issiqlik energiyasi, ming gkal	15,8	0,9	0,5

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 9,4 % ga ko'payish, Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlarda 19,8 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, plastmassa chiqindilari yig'ish bo'yicha xizmatlarda 20,7 % ga ko'payish kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	105 752,9	134 831,9	147 491,5
Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	47 225,4	62 929,7	75 361,6

Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari, mln so'm	44 888,4	49 324,7	67 058,4
Plastmassa chiqindilari, tonna	2 524,7	2 967,5	3 581,0

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 25 331,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,4 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 50,5 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a)

sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

T. Alimov
66 235-06-80 (3012)

Manzil:

Samarqand sh
U.Tursunov-82 uy
